

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/339512766>

Gidrometallurgiya jarayonlari nazariyasi: Laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar

Book · February 2020

CITATIONS

56

READS

4,408

3 authors:



[Anvar Abdullayevich Yusupkhodjayev](#)
Tashkent State Technical University

86 PUBLICATIONS 592 CITATIONS

[SEE PROFILE](#)



[Shokhrukh Toshpo'latovich Khojiev](#)
Tashkent State Technical University

330 PUBLICATIONS 1,675 CITATIONS

[SEE PROFILE](#)



[Kakhramon Ochildiev](#)
Tashkent State Technical University

58 PUBLICATIONS 239 CITATIONS

[SEE PROFILE](#)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

GIDROMETALLURGIYA JARAYONLARI NAZARIYASI

fanidan Laboratoriya ishlarini bajarish uchun

USLUBIY KO‘RSATMALAR

5310300 «Metallurgiya» yo‘nalishi uchun

Toshkent 2020

UO‘K 669.075

Yusupxodjayev A.A., Hojiyev Sh.T., Ochildiyev Q.T. *Gidrometallurgiya jarayonlari nazariyasi. Laboratoriya ishlari. Uslubiy ko‘rsatmalar.* – Toshkent: ToshDTU, 2020. 38 b.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma 5310300 “Metallurgiya” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr tayyorlashda o‘qitiladigan “Gidrometallurgiya jarayonlari nazariyasi” fani dasturi asosida tuzilgan va kafedra majlisida tasdiqlangan. Laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatma “Metallurgiya” yo‘nalishida ta’lim olayotgan bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, shuningdek, yo‘nalish magistrantlari o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ishlari yuzasidan tajribalar o‘tkazishda foydalanishlari mumkin.

Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy – uslubiy kengashi qaroriga asosan chop etildi.

Taqrizchilar:

Xakimova G. – TKTI, SM va KNMT kafedrası t.f.n., dotsent.
(*turdosh OTM*);

Qalandarov Q.S.– ToshDTU, KIMF, “Konchilik ishi” t.f.n., dotsent.

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2020

1 - LABORATORIYA ISHI

TURLI MODDALARNING SUVDA ERUVCHANLIGINI O'RGANISH

Ishdan maqsad: turli birikmalarning suvda eruvchanligini o'rganish.

Zarur materiallar va asbob – uskunalar:

Laboratoriya ishini bajarish uchun turli moddalarning eruvchanligi o'rganiladi: yaxshi eruvchan, o'rta eruvchan, kam eruvchan, deyarli erimaydigan.

Xona haroratida (20°C) to'yingan eritmalarıni tayyorlash uchun quyidagi birikmalar to'g'ri keladi:

yaxshi eruvchan – kaliy nitrati, kaliy xloridi, natriy xloridi;

o'rta eruvchan – kaliy xlorati (bertolle tuzi), bariy nitrati, kaliy dixromati va bariy gidroksidi;

kam eruvchan – qo'rg'oshin xloridi, kalsiy gidroksidi va qo'rg'oshin bromidi;

deyarli erimaydigan – qo'rg'oshin sulfati.

Laboratoriya ishlari uchun har bir guruhdan bittadan modda olinadi.

Moddaning eruvchanligi haqida olingan natija ma'lumotnomalarda olingan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi va xatolik foizi hisoblanadi:

1) agar aniqlangan eruvchanlik ma'lumotnomada berilgandan kam bo'lganda xatolik quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$100 \cdot (a - b) / a$$

2) aniqlangan ko'rsatkich ma'lumotnomada berilgandan ko'p bo'lganda, quyidagi tenglamadan foydalaniladi.

$$100 \cdot (b - a) / a$$

tenglamalarda a – ma'lumotnoma bo'yicha eruvchanlik ko'rsatkichi;
 b – aniqlangan eruvchanlik.

Reaktiv va dastgohlar:

- eruvchanligi aniqlanadigan moddalar;
- tajribaviy texnik tarozi (toshlari bilan);
- kimyoviy stakan;
- chinni stakan;
- shisha tayoqcha;
- termometr;
- magnitli aralashtirgich.

Ishni bajarish tartibi va texnikasi

1. Turli haroratlarda eruvchanligi aniqlanadigan barcha moddalarning to‘yingan eritmalarini tayyorlash.
2. Natijalarni yozish uchun jadval tayyorlanadi.

1-jadval

Moddaning formulasi	Shisha tayoqchali chinni chashkaning massasi, g			To‘yingan eritmaning harorati, °C
	eritmasiz	eritma bilan	modda bilan	

3. Tajribadan oldin eritmada erimay qolgan moddalar borligini tekshirish kerak, chunki faqatgina shu shartda eritma to‘yinganligi bilinadi.
4. Eritmaning haroratini aniqlab jadvalga kiritish.
5. Shisha tayoqcha solingan va quritilgan chinni chashkani tarozida tortib uning og‘irligini aniqlash.
6. Eritmani aralashtirmasdan kichik porsiyalab chashkalarga quyish.
7. Eritma solingan chashkani tarozida tortib og‘irligini aniqlash.
8. Eritmani bug‘latish, bug‘latish jarayonida eritma shisha tayoqcha bilan sekin aralashtiriladi.
9. Bug‘latishdan so‘ng chashkadagi modda quritiladi va xona haroratigacha sovutiladi. So‘ngra chashka shisha tayoqcha bilan birga tarozida tortiladi.
10. Moddaning eruvchanligi quyidagi tenglama orqali 100 ml suvga nisbatan hisoblanadi.

$$b = m \cdot 100 / m_1$$

tenglamada: m – moddaning massasi, g; m_1 – suvning massasi, g; d_{H_2O} – suvning zichligi; b — tajriba yo‘li bilan aniqlangan eruvchanlik (100 ml da).

Nazorat savollari:

1. Eruvchanlik deganda nimani tushunasiz?
2. Moddalar suvda eruvchanligiga asosan necha turga bo‘linadi?
3. Gazsimon moddalarning suvda eruvchanligini oshirish maqsadida qanday chora-tadbirlar ko‘rilishi kerak?
4. Qattiq moddalarning suvda eruvchanligiga harorat qanday ta‘sir ko‘rsatadi?
5. Suvdan tashqari yana qanday erituvchilarni bilasiz?

2- LABORATORIYA ISHI

SULFIDLI BOYITMADAGI MISNI SUVDA ERIYDIGAN HOLATGA KUYDIRISH USULI BILAN O‘TKAZISH

Ishdan maqsad: sulfidli boyitmalarni gidrometallurgik qayta ishlashga tayyorlash va desulfurizatsiya darajasini aniqlash uchun oksidlovchi kuydirishni olib borish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

Zarur materiallar va asbob-uskunalar:

- kimyoviy tarkibi aniq bo‘lgan - tigelni olish uchun qisqich;
- sulfidli mis boyitmasi (20 g.); - shpatel;
- mufel pechi (PM-2K); - texnik tarozi;
- chinni tigel; - agatli xovoncha.

Ishni bajarish tartibi

Sulfidli boyitmani kuydirish

Boyitmaning kuydirilishi 1-rasmda keltirilgan tajriba mufel pechida olib boriladi.

Og‘irligi 20 g bo‘lgan boyitma chinni tigelga solinadi, so‘ngra 850 °C gacha qizdirilgan pechga joylashtiriladi. Boyitmani oksidlovchi

kuydirilishi eshigi yopiq mufel pechida 50 daqiqa davomida, vaqti - vaqti bilan aralashtirilib olib boriladi.


Kuydirish jarayoni tugagandan so'ng tigel pechidan qisqich yordamida chiqariladi va sovutiladi. Sovugandan so'ng kuyindi tarozida tortiladi.

Natijalarga ishlov berish

Desulfurizatsiya darajasini va misni kuyindidagi miqdorini aniqlash uslubini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz:

Sulfidli mis boyitmasining kimyoviy tarkibi quyidagicha, %: Cu – 17,0; Fe – 31,8; S – 35,5; SiO₂ – 5,5; Fe₂O₃ – 2,3; CaO – 0,1; boshqalar – 7,8.

Boyitmaning mineralogik tarkibiga asosan mis quyidagi mineralda bog'langan: CuFeS₂ – xalkopirit, xalkozin – Cu₂S, kovellin – CuS.



2.1-rasm. Oksidlovchi kuydirishni olib borish uchun tajriba mufel pechining sxemasi:

- 1 – mufel pechi;
- 2 – boyitma solingan chinni tigel;
- 3 – haroratni boshqarish moslamasi;
- 4 – signal lampochkasi.

Misning oksidlangan ko'rinishga o'tganligini kuydirilgan boyitma og'irligining kamayishi bo'yicha aniqlaymiz. Og'irlikning kamayishi kuydirish jarayonida murakkab va oddiy sulfidlarning parchalanishi va oltingugurtni gaz fazasiga SO₂ ko'rinishida o'tishi hisobiga amalga oshiriladi.

Hisoblash misoli:

Dastlabki namunaning og'irligi $m_0 = 10$ g bo'lsa. Boyitmaning kimyoviy tarkibiga asosan boyitmadagi misning miqdori $m_{0Cu} = 1,7$ g, oltingugurtning miqdori esa $m_{0S} = 3,55$ g. Oksidlovchi kuydirishdan so'ng namunaning og'irligi $m_1 = 8,23$ g.

Og'irlikning kamayishi $\Delta m = m_0 - m_1 = 10 - 8,23 = 1,77$ g, $\Delta m - SO_2$ ko'rinishida gaz fazasiga o'tgan oltingugurt massasiga teng. Desulfurizatsiya darajasini (D) quyidagi tenglama yordamida aniqlaymiz:

$$D = 1,77/3,55 \cdot 100 = 49,8 \%$$

Kuyindida qolgan oltingugurtning massasi: $m_{1S} = 1,78$ g;

Oltingugurtning kuyindidagi foiz miqdori:

$$\beta_S = 1,78/8,23 \cdot 100 = 21,6 \%$$

Dastlabki boyitmada misning foiz miqdori 17 % (1,7 g) edi, misning kuyindidagi miqdori o'zgarmas qoladi, ammo kuyindida oltingugurtning miqdori kamaygani uchun namunaning og'irligi kamaygan va shuning hisobiga misning miqdori kuyindida oshadi:

$$\beta_{Cu} = 1,7/8,23 \cdot 100 = 20,6 \%$$

Tajriba ishining natijalari quyidagi jadvalga kiritiladi.

2-jadval

m_0	m_1	Δm	β_S dastlabki boyitmada, %	D, %	β_S kuyindida, %	β_{Cu} dastlabki boyitmada, %	β_{Cu} kuyindida, %

Nazorat savollari:

1. Nega mis va rux sulfidlarini qayta ishlashdan oldin oksidlovchi kuydiriladi?
2. Misning qanday sulfidli birikmalari bor?
3. Misning xalkozin mineralining oksidlanish formulasi qanday?
4. Xalkopirit oksidlanganda qanday birikmalar hosil bo'ladi?
5. Desulfurizatsiya darajasi deganda nimani tushunasiz?

3 - LABORATORIYA ISHI

OKSIDLANGAN MIS BOYITMASIDAN MISNI SULFAT KISLOTA ERITMALARI BILAN TANLAB ERITISH

Ishdan maqsad: Metallarni erituvchilarning suvli eritmalarida eruvchan birikmalarini tanlab eritish jarayonini olib borish va tadqiqot qilish ko'nikmasiga ega bo'lish va metall saqlovchi eritmalarni olish.

Zarur materiallar va asbob-uskunalar:

- oksidlangan mis boyitmasi;
- konsentratsiyasi 50 g/l bo'lgan sulfat kislota eritmasi;
- magnitli aralashtirgich;
- hajmi 250 ml bo'lgan kolba;
- texnik tarozi.

Ishni bajarish tartibi

Sulfat kislota eritmasi bilan tanlab eritish

Ishni bajarish uchun kimyoviy tarkibi aniq bo'lgan kuyindi va erituvchining eritmaları zarur.


Erituvchi sifatida konsentratsiyasi 50 g/l bo'lgan sulfat kislota eritmasi olinadi. Tanlab eritishda suyuq va qattiq mahsulotlarning nisbatligi (S:Q) 6:1 ko'rinishda bo'lishi kerak. Masalan, 20 g mis kuyindisi uchun 120 ml eritma tayyorlanadi.

Hajmi 250 ml bo'lgan kolbaga tarozida tortib olingan va og'irligi aniq bo'lgan mis kuyindisi joylashtiriladi va kolbaga sulfat kislota eritmasi quyiladi. Tanlab eritish jarayoni aralashtirish va bo'tanani isitish bilan olib boriladi. Aralashtirish davomiyligi 50 min, harorat 45-50°C. Aralashtirish va isitish magnitli aralashtirgichda amalga oshiriladi (1-rasm).

Sulfat kislota eritmasini tayyorlash

Sulfat kislota konsentratsiyasi 50 g/l bo'lgan 120 ml eritma tayyorlash uchun sulfat kislota va suvning miqdorini aniqlaymiz.

Konsentrlangan sulfat kislotaning zichligi $H_2SO_{4(kons)} = 1,84 \text{ g/sm}^3$, demak, 50 g konsentrlangan kislotaning hajmi $50 : 1,84 = 27,2 \text{ sm}^3$ yoki 27,2 ml bo'ladi.



3.1-rasm. Tanlab eritish uskunasi: 1- kolba, 2- magnit (aralashtirish moslamasi), 3- isitgichli magnit aralashtirgich.

Shu hajmdagi kislotadan 1 litr eritma tayyorlash uchun ishlatiladi. 120 ml eritma tayyorlash uchun esa zarur boʻlgan kislotaning hajmi quyidagicha aniqlanadi:

1000	-	27,2	$x = 120 \cdot 27,2 / 1000 = 3,26 \text{ ml (H}_2\text{SO}_4)$
			Zarur boʻlgan suvning miqdori:
120	-	x	$120 - 3,26 = 116,74 \text{ ml}$

Eritmada misning konsentrasiyasini aniqlash

Tajribadan soʻng aralashtirish toʻxtatiladi va boʻtana tindiriladi. Soʻngra taxminan boʻtananing yarim hajmigacha, choʻkmani suv bilan yuvmasdan filtrlanadi.

Misning miqdorini aniqlash uchun filtrtdan pipetka yordamida probirkaga 20-25 ml hajmda eritma solinadi.

Tanlab eritish eritmalarida misning miqdori kalorimetrik shkala yordamida aniqlanadi.

Natijalarga ishlov berish

Misni eritmaga ajratib olish darajasini aniqlashni quyidagi misolda koʻrib chiqamiz:

Oksidlangan mis boyitmasida (kuyindi) misning miqdorini 20,6 % boʻlganda tanlab eritish uchun olingan 20 g namunada misning miqdori:

$$20 \cdot 0,206 = 4,12 \text{ g boʻladi.}$$

Tanlab eritishdan soʻng eritmada misning konsentratsiyasini 30 g/l deb qabul qilamiz. 120 ml eritmada misning miqdorini quyidagicha aniqlaymiz:

$$1000 - 30 \quad x = 120 \cdot 30 / 1000 = 3,6 \text{ g}$$

$$120 - x$$

Mis kuyindisining 20 g namunasidan 120 ml eritmaga misning ajratib olish darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\varepsilon = 3,6 : 4,12 \cdot 100 = 76,7 \%$$

ε – misni eritmaga ajratib olish darajasi, %.
Olingan natijalar quyidagi jadvalga kiritiladi.

3-jadval

Mis kuyindisining massasi, g	Kuyindidagi misning miqdori, %	Sulfat kislota eritmasining konsentratsiyasi, g/l	Sulfat kislota eritmasining hajmi, ml.	Tanlab eritish davomiyligi, min	Tanlab eritish harorati t, °C	Misni eritmaga ajratib olish darajasi ε , %

Nazorat savollari:

1. Misning qanday oksidlarini bilasiz?
2. Mis (II)-oksidini sulfat kislotalarda eritilganda qanday biriklmalar hosil boʻladi?
3. Mis oksidlarini yana qanday kislotalarda eritish mumkin?
4. Mis oksidlarini ishqorlar eritmasida eritish mumkinmi?
5. Mis kuyindisidan misni tanlab eritishdagi metallning eritmaga ajralish darajasi (reaksiyaning unumi) qaysi formula orqali topiladi?

4 – LABORATORIYA ISHI

RUX OKSIDINI SULFAT KISLOTA ERITMALARIDA TANLAB ERITISH

Ishdan maqsad: Kislotalarning suvdagi eritmalarida metallarning oksidlangan birikmalarini tanlab eritish ko‘nikmasiga ega bo‘lish

Qisqacha nazariy ma’lumotlar

Og‘ir rangli metallar oksidlarining ko‘pchiligi, ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan asosiy erituvchi reagentlarda yaxshi eriydi. Shuning uchun o‘zining tarkibida oksidlangan metallni saqlovchi rudalar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri gidrometallurgik usullar bilan qayta ishlanadi.

Ko‘p hollarda, oksidlar erishining termodinamik imkoniyati mavjuddir, ya’ni bu reaksiyalarning termodinamik muvozzant konstantasi musbat ko‘rsatkichlardir ($K > 1$).

Oksidlarning erishini, rux oksidining sulfat kislota eritmalarida erishi misolida ko‘rib chiqamiz.

Sanoat amaliyotida rux oksidini sulfat kislota eritmalarida tanlab eritish, sulfidli rux boyitmasini oksidlovchi kuydirishdan so‘ng amalga oshiriladi. Amaliyotda rux oksidini tanlab eritish, aylanuvchi sulfat kislota elektrolitlari bilan olib boriladi.

Kuchsiz sulfat kislota eritmalarida rux oksidining erishi quyidagi reaksiya bo‘yicha boradi:



Kerakli materiallar va asbob uskunalar

1. Texnik tarozi.
2. Boyitmani yanchish uchun xovoncha.
3. Rux oksidini (ZnO) saqlovchi boyitma.
4. Hajmi 250 ml li kimyoviy stakan.
5. Konsentratsiyasi 100 g/l bo‘lgan sulfat kislota eritmasi.
6. Magnitli aralashtirgich.
7. Quritish shkafi.

Ishni bajarish tartibi

Texnik tarozida ogʻirligi 10 g oksidlangan rux boyitmasi tortiladi.

Tortib olingan boyitma namunasi hajmi 250 ml li kimyoviy stakanga joylashtiriladi va unga konsentratsiyasi 100 g/l boʻlgan sulfat kislota eritmasi quyiladi. Tanlab eritish jarayonidagi suyuq va qattiq mahsulotlarning nisbati S:Q = 10:1. Namuna solingan stakan magnitli aralashtirgichga joylashtiriladi.

Tanlab eritish 45 min davom ettiriladi, jarayonning harorati 50-60°C.

Tanlab eritishdan soʻng boʻtana filtrlanadi, kek 10-15 ml issiq suv bilan yuviladi.

Filtrning hajmi oʻlchov silindrida oʻlchanadi. Kekni esa quritish shkafida quritiladi va texnik tarozida tortiladi.

Natijalarga ishlov berish

Ruxni sulfat kislotasiga ajratib olish darajasini gravimetrik usul bilan aniqlaymiz.

Ajratib olish darajasini aniqlash va hisoblash quyidagi misolda keltirilgan.

Tanlab eritiladigan oksidlangan rux boyitmasining ogʻirligini 50 g va tarkibidagi rux oksidi miqdorini 60% deb qabul qilamiz.

Boyitma tarkibidagi rux oksidining miqdorini aniqlaymiz:

$$50 \cdot 60 : 100 = 30 \text{ g.}$$

4.1. reaksiyasiga asoslangan holda, sulfat kislota bilan faqat ZnO reaksiyaga kirishadi deb qabul qilamiz.

30 g ZnO dagi ruxning miqdorini aniqlaymiz:

$$81 \quad - \quad 65 \quad \quad M(\text{ZnO}) = 65 + 16 = 81$$

$$30 \quad - \quad x \quad \quad x = 30 \cdot 65 / 81 = 24,1 \text{ g}$$

Ruxni eritmaga ajratib olish darajasini 100% deb qabul qilsak, bu holda eritmaga 24,1 g rux oʻtadi, yaʼni tanlab eritishdan soʻng kekning ogʻirligi

$$50 - 24,1 = 25,9 \text{ g bo'lad}i.$$

Tanlab eritishdan so'ng kek massasini 1,5 g deb qabul qilamiz. Shunda ruxni eritmaga ajratib olish darajasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\varepsilon = 1,5 : 2,0 \cdot 100 = 75,0 \%$$

Agar kekning og'irligi tanlab eritishdan so'ng 32,5 g bo'lsa, ruxning eritmaga ajratib olish darajasi quyidagicha aniqlanadi:

- eritmaga ajratib olingan ruxning miqdori

$$50 - 32,5 = 17,5 \text{ g}$$

- ruxni eritmaga ajratib olish darajasi:

$$\varepsilon = 17,5 : 24,1 \cdot 100 = 72,6 \%$$

Olingan natijalar quyidagi jadvalga kiritiladi:

4-jadval

Rux oksidi namunasining og'irligi, g.	Sulfat kislota eritmasining hajmi, ml.	Filtrat hajmi, ml.	Kek og'irligi, g.	Ruxni eritmaga ajratib olish darajasi, %.

Nazorat savollari:

1. Tanlab eritish deganda nimani tushunasiz?
2. Rux oksidini sulfat kislotalarda tanlab eritish jarayonining kimyoviy reaksiya tenglamasi qanday ko'rinishga ega?
3. Kuydirilgan rux boyitmasini tanlab eritishda qanday konsentratsiyali sulfat kislota eritmasi ishlatiladi?
4. Rux oksidini yana qanday kislotalarda eritish mumkin?
5. Tanlab eritishdan so'ng qolgan qattiq qoldiq gidrometallurgiyada qanday nomlanadi?

5 - LABORATORIYA ISHI

AMMONIY PARAMOLIBDATINI OLIISH MAQSADIDA MOLIBDEN KUYINDILARINI QAYTA ISHLASH

Ishdan maqsad: Molibden kuyindilaridagi molibdenni ammiakli eritmalar ishtirokida tanlab eritish yo‘li bilan molibdenni ajratib olish jarayonining texnologiyasi bilan tanishish.

Kerakli materiallar va asbob uskunalar

1. Kimyoviy tarkibi aniq bo‘lgan molibden kuyindisi.
2. Magnitli aralashtirgich, tanlab eritish uchun hajmi 250 ml bo‘lgan stakan.
3. 5 va 10% li ammiak eritmaları.
4. Mis sulfat eritmasi.
5. Hajmi 200 ml li shisha stakan.
6. Chinni xovoncha.
7. Filtr qog‘oz.
8. Shisha probirkalar.

Ishni bajarish tartibi

1. Stakanga texnik tarozida og‘irligi aniqlab olingan namuna joylashtiriladi, so‘ngra stakanga zarur miqdordagi eritma quyiladi.
2. Tayyorlangan bo‘tana isitadigan magnitli aralashtirgichda belgilangan vaqt davomida tanlab eritiladi.

Tanlab eritish jarayonini amalga oshirish uslubi

Kuyindi chinni havonchada yanchiladi va tarozida tortiladi. 10 g yanchilgan kuyindi stakanga yuklanadi va unga 5 yoki 10% li ammiak eritmasi quyiladi. Tanlab eritish jarayonidagi suyuq va qattiq mahsulotlarning nisbati $S:Q = 2,5 : 1$.

Tanlab eritish 1 soat davomida aralashtirish usulida xona haroratida olib boriladi. Tanlab eritishdan so‘ng eritma cho‘kmadan filtrlash yo‘li bilan ajratib olinadi. Filtrdagi cho‘kma $30-40 \text{ sm}^3$ suv bilan yuviladi. Filtr filtrlash kolbasidan shisha stakanga quyiladi.

Eritmalarni zarra qo‘shimchalardan tozalash

Filtrlangan eritmaga qo‘ng‘ir-qora cho‘kma cho‘kishining to‘xtashiga qadar, pipetka bilan, tomchilab ammoniy sulfidi eritmasi qo‘shiladi. Ammoniy sulfidi 2-3 tomchi qilib tomchilanadi. Har bir tomchi qo‘shilgandan so‘ng eritma shisha tayoqcha bilan aralashtiriladi va eritma tarkibidagi og‘ir rangli metallarni to‘liq cho‘ktirilganligini nazorat qilish uchun 2-3 sm³ eritma probirkaga filtrlanib olinadi.

Agar filtrlangan eritmaning rangi moviy rang (mis ammiak kompleksining rangi) yoki deyarli rangsiz bo‘lsa, eritmaga bir tomchi ammoniy sulfidi qo‘shiladi va bu holda qo‘ng‘ir-qora cho‘kma cho‘kadi. Filtrlangan eritmaning sariq rangda bo‘lishi, eritmada ko‘p miqdorda ammoniy sulfidi mavjudligini bildiradi. Eritmadan ortiqcha ammoniy sulfidini yo‘qotish uchun, stakanga tomchilab mis sulfat eritmasi qo‘shiladi. Har bir qo‘shilgan tomchidan so‘ng, eritma aralashtiriladi va undan namuna olinadi. Agar olingan namunaning rangi sariq bo‘lsa, stakanga mis sulfati qo‘shilishi davom ettiriladi.

Og‘ir rangli metallardan tozalangandan so‘ng, eritma cho‘kmadan vakuum ostida filtrlash yo‘li bilan 2-3 filtr qatlamidan filtrlanadi.

Ammoniy qo‘shmolibdatini durlash

Og‘ir rangli metallardan tozalangan ammoniy molibdati eritmasi, chinni idishda suv hammomida bo‘tqasimon holatgacha bug‘lantiriladi. Bug‘lantirish vaqtida, eritmada har doim ozgina miqdorda ammiak bo‘lishini nazorat qilish kerak (hidi bo‘yicha). Eritma solingan chashka sovuq suvga o‘rnatiladi.

Bir soatdan so‘ng hosil bo‘lgan durlar filtrlanadi, filtr qog‘ozlar orasida quritiladi va tarozida og‘irligi tortib olinadi.

Tajribadan so‘ng Mo ni boyitmadan eritmaga ajratib olish darajasi hisoblanadi.

Hisoblaganda ammoniy qo‘shmolibdatida ammoniyni stexiometrik tarkibini quyidagi formula bo‘yicha olinadi:



Laboratoriya natijalariga ishlov berish

Molibdenni ajratib olish darajasi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$E = \frac{G_1 \cdot G_3}{a \cdot G \cdot G_2}, \% \quad (5.1)$$

bu yerda: G – boyitmaning kuydirishdan oldingi og‘irligi, g;
 G_1 – boyitmaning kuydirishdan keyingi og‘irligi, g;
 G_2 – tanlab eritilgan kuyindining og‘irligi, g;
 G_3 – ammoniy qo‘shmolibdatining og‘irligi, g;
 a – boyitmadagi molibdenning konsentratsiyasi, %.

Agar kuydirishdan so‘ng hosil bo‘lgan kuyindining hammasi tanlab eritilsa, bunda $G_1=G_2$ bo‘ladi, (5.1) tenglama esa quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$E = \frac{G_3}{a \cdot G}, \% \quad (5.2)$$

Laboratoriya natijalari quyidagi jadvalga kiritiladi.

5-jadval

№	Kuyidirish davomiyligi (soat)	Kuyindi og‘irligi, G	Ammiakning konsentratsiyasi, %	Qo‘sh-molibdatning og‘irligi, g	Boyitmadan molibdenni umumiy ajratib olish darajasi

Nazorat savollari:

1. Molibdenni dunyo bo‘yicha gidrometallurgik usulda ajratib olinishining sababi nimada?
2. Molibdenning yuqori oksidi formulasi qanday bo‘ladi?
3. Molibden (VI)-oksidining ammiakli suv bilan ta’sirlashish reaksiyasi qanday?
4. Ammiakli suv texnikada yana qanday nom bilan yuritiladi?
5. Ammoniy molibdat eritmasi durlanganda qanday birikmalar hosil bo‘ladi?

6- LABORATORIYA ISHI

IONALMASHUVCHI QATRONLARNING (SMOLALARNING) TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

Ishdan maqsad: eritmalardan metallarni sorbsiyalashda qo'llaniladigan ion almashuvchi qatronlar bilan ishlash va ularning namligini, sochiluvchan og'irligini va shishishidan keyingi hajmini aniqlash ko'nikmasiga ega bo'lish.

Qisqa nazariy ma'lumotlar

Ionitlar deb ataluvchi qattiq moddalarning o'z ionlarini ishorasi bir xil bo'lgan eritmadagi ionlarga almashtirishi hisobiga eritmadan metall ionlarini ajratib olishiga ionalmashuv jarayonlari deyiladi.

Hozirgi vaqtda gidrometallurgiyada qatron (smola) deb ataluvchi sun'iy organik ionitlar keng tarqalgan. Qatronlar yordamida o'ta suyultirilgan eritmalardan metallarni ajratib olish, xossalari juda yaqin bo'lgan metallarni bir-biridan ajratish, ishlab chiqarish chiqindi suvlarini zaharli moddalardan tozalash mumkin.

Ionalmashuvchi sun'iy qatronlarning qurilishi plastmassalar qurilishiga o'xshash bo'lib, ularning tarkibiga ionogen guruhlar kiritilishi ionitlarga elektrkimyoviy faollik bag'ishlaydi.

Sanoatda qatronlar 0,5-3,0 mm yiriklikda va yumaloq shaklda chiqariladi.

Qatronlarning asosiy xususiyatlari

Qatronning shishishi

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan ionitlarning o'lchami 0,5- 3,0 mm (cho'zinchoq bo'lsa 2-4 mm) bo'ladi. Qatron suvga tushirilganda ma'lum miqdordagi suvni shimib shishadi. Suvning qatron g'ovaklariga kirib borishi, uning ichidagi erkin ionlarning gidratlanishiga bo'lgan moyilligi hisobiga yuz beradi. G'ovaklarga suv to'lgan sari qatronning fazoviy to'ri cho'zila boshlaydi va hajmi kattalasha boradi.

Qatronning ionalmashuv sig'imi

Qatronlarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning ionalmashuv sig'imidir. Ionalmashuv sig'imi deb, 1g quruq, qatronning eritmadan yuta olgan ionlar miqdoriga aytiladi va u mg-ekv/g yoki mg/g bilan o'lchanadi.

Kerakli materiallar va asbob uskunalari:

- AM-2B anioniti yoki KU-2 kationiti;
- eksikator;
- texnik tarozi;
- qopqoqli byuks;
- quritish shkafi;
- o'lchov silindri.

Ishni bajarish tartibi:

1. Qatronning namligini aniqlash

Tajribani olib borish uchun 5 g qatron olinadi. So'ngra qatron oldindan quritilgan va og'irligi aniqlangan byuksga joylashtiriladi.

Tarozida qatron solingan byuksning og'irligi aniqlanadi va byuks 1 soatga 105-110 °C gacha qizdirilgan quritish shkafiga joylashtiriladi.

Belgilangan vaqt o'tgandan so'ng byuks quritish shkafidan chiqariladi va qopqog'i bilan yopilib sovutiladi. Sovugandan so'ng qatron solingan byuksning og'irligi aniqlanadi. Qatronning namligi foiz birligida quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi.

$$W = \frac{q_2 - q_3}{q_1 - q_3} \cdot 100 \%$$

Tenglamada:

q_1 – quritishdan oldin qatron solingan byuksning og'irligi, g;

q_2 – quritishdan so'ng qatron solingan byuksning og'irligi, g;

q_3 – byuks og'irligi.

Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalga kiritiladi.

6-jadval

Quritishdan oldin qatron solingan byuksning og'irligi (q_1), g	Quritishdan so'ng qatron solingan byuksning og'irligi (q_2), g	Byuksning og'irligi (q_3), g	Qatronning namligi, %

2. Quruq ionitning sochiluvchan og'irligini aniqlash

20 g quruq ionit (qatron) o'lchov silindriga joylashtiriladi, so'ngra silindr 50-60 marta tubi bilan stolga uriladi. Qatron to'liq

zichlashgandan so'ng uning hajmi silindrning shkalasi bo'yicha aniqlanadi. Quruq ionitning sochiluvchan og'irligi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$\gamma_c = \frac{q}{V_0} \quad (6.1)$$

Tenglamada: q – qatronning og'irligi, g;

V_0 – quruq qatronning silindrda egallagan hajmi, ml.

3. Nam ionitning sochiluvchan og'irligini va uning shishishdan keyingi hajmini aniqlash

O'lchov silindridagi 20 g quruq qatronga suv quyiladi va 24 soatga qoldiriladi. Belgilangan vaqt o'tgandan so'ng o'lchov silindridan suv quyib tashlanadi va silindr 50-60 marta tubi bilan stolga uriladi. Shishgan qatron zichlashgandan so'ng uning hajmi silindrning shkalasi bo'yicha aniqlanadi. Shishgan qatronning sochiluvchan og'irligi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi.

$$\gamma_v = \frac{q}{V_v} \quad (6.2)$$

Tenglamada: q – quruq ionitning og'irligi, g;

V_v - zichlashgandan so'ng shishgan nam ionitning hajmi, ml.

Shishish natijasida qatron hajmining oshishini quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$\Delta V_{farq} = \left(\frac{\gamma_c}{\gamma_v} - 1 \right) \cdot 100\% \quad (6.3)$$

Nazorat savollari:

1. Qatronlarning qanday texnologik xususiyatlari bor?
2. Qatronlar metallurgiyada nima maqsadda ishlatiladi?
3. Ionit (qatron)larning qanday turlarini bilasiz?
4. Sorbsiya qanday jarayon?

7- LABORATORIYA ISHI

MISNI TEMIR BILAN SEMENTATSIYALASH


Ishdan maqsad: sementatsiya jarayonini olib borish va natijalarga ishlov berish ko'nikmasiga ega bo'lish.

Qisqa nazariy ma'lumotlar

Sementatsiya deb eritmalardan tiklanadigan metall ioni va metall sementator orasidagi o'zaro ta'sirlashuv elektrokimyoviy reaksiyalariga asoslangan holda metallarni eritmalardan siqib chiqarish jarayoniga aytiladi. Eritmalardan asosiy metallarni siqib chiqarish uchun metall sementatorning standart potentsiali siqib chiqariladigan metallning potentsialiga qaraganda manfiyroq bo'lish kerak.

Sementator metallini tanlashda nafaqat uning standart potentsialini hisobga olish kerak, balki asosiy metallni siqib chiqariladigan eritmada sementator metallning unsur element sifatida borligini hisobga olish lozim. Masalan, misni sulfat kislota eritmasidan sementatsiyalashda asosan temir tanlanadi, chunki mis eritmalarida har doim temir ionlari mavjud va sementatsiyadan so'ng eritmalar temirdan tozalanadi.

Eritmalardan misni temir bilan sementatsiyalash jarayonini quyidagi yarim reaksiyalar bilan ifodalash mumkin:




Misni eritmalardan metallik temir bilan cho'ktirishda eng zararli qo'shimcha uch valentli temirdir, chunki uning mavjudligi metallik temirning quyidagi reaksiya bo'yicha ortiqcha sarfiga olib keladi.



Metallik temirning ortiqcha sarfidan tashqari sement cho'kma temirning sulfat kislotali tuzlari va gidroksidlari bilan ifloslanadi.

Temirning ortiqcha sarfiga sulfat kislota mavjudligi ham olib keladi:



Misni eritmada sementatsiyalashda temirning stexiometrik sarfi 1 kg misga 0,874 kg ni tashkil etadi. Amaliyotda esa temirning ortiqcha


sarfini hisobga olganda temirning sarfi 1 kg misni sementatsiyalash uchun 1 dan 2,5 kg gacha tashkil etadi.

Kerakli materiallar va asbob uskunalari:

- | | |
|--|-------------------------|
| - to‘yingan mis sulfat eritmasi; | - filtr qog‘oz; |
| - zang va moydan tozalangan temir mix; | - ip; |
| - texnik tarozi; | - sekundomer; |
| - distillangan suv; | - pH indikator; |
| - shisha stakan; | - sulfat kislota (1:1). |

Ishni bajarish tartibi

7-tajriba ishida hosil bo‘lgan mis sulfat eritmasi olinadi. Eritmaning pH ko‘rsatkichi aniqlanadi. Eritmaning pH ko‘rsatkichi 1-3 bo‘lishi kerak, agar ko‘rsatkich belgilangandan yuqori bo‘lsa eritmaga sulfat kislota qo‘shiladi. Sulfat kislotaning qo‘shilishi uch valentli temir sulfatining gidrolizlanishining oldini oladi. Agar bu tadbir qilinmasa, u holda uch valentli temir gidroksidi hosil bo‘ladi va u sementatorning ustiga cho‘kib, uning faolligini kamaytiradi.



1. Tajribadan oldin temir mixning og‘irligi aniqlanadi.
2. Ehtiyotkorlik bilan ipga bog‘langan mix eritmaga tushiriladi.
3. Mix mis eritmasidan chiqariladi, distillangan suvda yuviladi va filtr qog‘ozlar orasida quritiladi.
4. Mis cho‘kkan mixning og‘irligi aniqlanadi.
5. Qancha mis cho‘kkanini va qancha temir reaksiyaga kirishganligi hisoblanadi.

Masalan:

a) 1 mis atomi 1 temir atomi bilan almashadi, demak, mixning massasi 8 shartli birliklarga (sh.b.) o‘zgaradi (mis - 64 sh.b.— temir - 56 sh.b.);

b) 1 g-atom mis 1 g-atom temirning o‘rniga o‘tiradi, demak, mixning massasi 8 g ga o‘zgaradi;

v) qilingan tajribada mixning massasini $(b - a)$ o‘sgan deb qabul qilamiz, b — tajribadan keyin mixning massasi; a — tajribadan oldin mixning massasi;

Cho‘kkan misning massasini x , reaksiyaga kirishgan temirning massasini y deb belgilasak, bu holda 64 g mis ajralib chiqqanda reaksiyaga 56 g temir kirishgan bo‘ladi, massadagi farq 8 g ni tashkil etadi.

x g Cu ajralib chiqqanda reaksiyaga kirishgan Fe y g bo‘ladi— massadagi farq $(b - a)$ g

$$x = 64 \cdot (b-a) / 8 = 8 \cdot (b-a)$$

$$y = 56 \cdot (b-a) / 8 = 7 \cdot (b-a)$$

Nazorat savollari:

1. Sementatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Sementatsiya jarayonini amalga oshirish uchun tanlanadigan sementatorning potentsiali qanday bo‘lishi kerak?
3. Misni eritmasidan yana qaysi metallar bilan cho‘ktirish mumkin?
4. Metallarning elektrkimyoviy kuchlanishlar qatorida mis qayerda joylashgan?
5. Sementatsiya jarayonining gidrometallurgiyada qanday ahamiyati bor?

8- LABORATORIYA ISHI

MISNI MIS SULFAT ERITMASIDAN ELEKTROLIZ USULIDA CHO‘KTIRISH

